



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

ЦЕНТРАЛЬНЫЙ БАНК
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

THE CENTRAL BANK OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100001, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 6.
Tel.: (+99871) 212-60-21, 212-62-99, 200-00-44, 233-32-70, Faks: (+99871) 233-79-39.
www.cbu.uz, info@cbu.uz, cbu@exat.uz

100001, Республика Узбекистан,
г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 6

6, Islam Karimov street, 100001, Tashkent,
Republic of Uzbekistan

2025_y. "20" may № 26-20/875

Kredit tashkilotlariga

Bugungi kunda moliyaviy xizmatlar bozorida kredit tashkilotlari va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarda muvozanatning buzilishiga olib kelayotgan holatlarni kuzatish mumkin.

Xususan, ayrim kredit tashkilotlari faoliyatida iste'molchilarning huquq va manfaatlariga putur yetkazilishi, adolat va shaffoflik tamoyillariga zid bo'lgan insofsiz munosabatlarning yuzaga kelishi natijasida iste'molchilarning moddiy jihatdan zarar ko'rishi bilan bir qatorda bank-moliya sektoriga bo'lgan ishonchning pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 9-moddasida fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shartligi, shuningdek fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Shunga ko'ra, iste'molchilarga chakana moliyaviy xizmatlar ko'rsatish shartlarining shaffofligini ta'minlash, ularning sifatini oshirish, shuningdek iste'molchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularning bank-moliya tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash maqsadida Markaziy bank kredit tashkilotlarining e'tiborini iste'molchilar bilan munosabatlarda insofsiz amaliyot sifatida baholanadigan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmasligiga qaratadi.

Kredit tashkilotlari tomonidan chakana moliyaviy xizmatlar ko'rsatilishida insofsiz amaliyotlar sirasiga adolat va halollik tamoyillariga zid keluvchi, shu jumladan quyidagi:

kredit shartnomalariga iste'molchi manfaatlariga putur yetkazadigan, taraflarning huquq va majburiyatlari o'rtasida sezilarli nomutanosiblikni keltirib chiqaruvchi adolatsiz shartlarning kiritilishi;

shartnomalarda iste'molchilarni chalg'ituvchi shartlardan foydalanib, ularning huquqlari, jumladan shartnoma shartlariga e'tiroz bildirish huquqi cheklanganligi to'g'risida noto'g'ri tasavvur uyg'otish;

iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilmasdan va roziligini olmasdan shartnomaning muhim shartlarini (foiz stavkalari, to'lov muddatlari va boshqalar) bir tomonlama o'zgartirish;

kreditga layoqatlilikni baholash bo'yicha iste'molchiga kredit ajratishni rad etish sabablarini aniq tushuntirib berishga imkon bermaydigan murakkab algoritmlardan foydalanish;

iste'molchilarga bevosita yoki bilvosita, shu jumladan noaniq yoki bo'rttirib ko'rsatish orqali ularni chalg'itishi mumkin bo'lgan axborot taqdim etish;

iste'molchi tomonidan bitim bo'yicha puxta o'ylangan qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etmaslik kabi amaliyotlar kiradi.

Iste'molchilarning pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb qilish va ularga kredit ajratish bilan bog'liq insofsiz amaliyotlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

iste'molchilarga kredit berishni rad etish sabablari to'g'risida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan tushuntirishlar, shu jumladan mavjud bo'lmagan "qora ro'yxat"ga havola qilgan holda javob berish;

iste'molchilarga kredit shartnomalari shartlarini lozim darajada tushuntirmasdan qo'shimcha mahsulot va xizmatlarni (sug'urta, SMS-xabarlar va xk.) majburan qabul qildirish, shuningdek bunday xizmatlarni olishga iste'molchi tomonidan buyurtma berilmagan yoki ularning boshqa shakldagi roziligi mavjud bo'lmagan holda ularga taqdim etish;

shartnomaga iste'molchi zimmasiga qonunchilikda nazarda tutilmagan majburiyatlarni yuklaydigan, shu jumladan kredit shartnomalarida mijoz bajarishining imkoni bo'lmaydigan yoki mijozning huquqlarini buzadigan "kovenant" va "muhim shartlar" kiritilishi;

reklama tusidagi axborotlarda bank tomonidan taqdim etiladigan kreditning (mikroqarzning) foiz stavkasi "X foizdan" boshlanadi deb, eng yuqori stavkasi va ularni belgilash tartibini ko'rsatmaslik;

qarz oluvchilarning kredit arizasida so'ralgan kredit miqdoridan ko'p bo'lgan summani taklif etgan holda, ularni ko'proq kredit mablag'i olishga undash;

banklar kredit kartaning imtiyozli (foizsiz) davr haqidagi sharti haqqoniyligini ta'minlamasdan, shaffoflik va adolatlilik tamoyillariga rioya qilmagan holda, o'z

mobil ilovalarida kredit karta bo'yicha qarzdorlikni imtiyozli davr mobaynida so'ndirganlik uchun iste'molchilarga to'lovlar joriy etishi;

kredit bo'yicha to'lovlarni kreditni qaytarish jadvalida belgilangan kalendar kuni kelmasdan qarzdor (kafil)ning bank kartasidan oldindan undirib olinishi.

Shu munosabat bilan, ushbu xatning mazmunini chakana moliyaviy mahsulot va xizmatlarni yaratishda va iste'molchilarga taqdim qilishda, iste'molchilar bilan tuziladigan shartnomalarni ishlab chiqishda ishtirok etadigan barcha mas'ullarga yetkazilishini, shuningdek mijozlar bilan bevosita muloqot qiladigan (front-ofis) xodimlarini malakasini oshirish yuzasidan doimiy ravishda o'qitib borilishini ta'minlashingiz so'raladi.

Ta'kidlash lozimki, kredit tashkilotlari faoliyatida aniqlangan insofsiz amaliyotlar misollari Markaziy bankning kommunikatsiya kanallari orqali muntazam ravishda e'lon qilib boriladi.